



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 29-iyul, chorshanba,
66 (24.246)-son

O'zbek xalq
maqoli

Ish -
insonning
gavhari

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

MUSTAQILLIK

35



**YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!**



TADBIRKORLAR

mahalla uchun shifoxona qurdi

Urgut tumani Soy G'o's mahallasida tadbirkor tomonidan 5 milliard so'm mablag' evaziga bunyod etilgan poliklinika va tez yordam shoxobchasi foydalanishga topshirildi.

5800 dan ortiq aholi is-tiqomat qiluvchi mazkur mahalla fuqarolari shu paytgacha 20-G'o's oilaviy poliklinikasi xizmatidan foydalanib kelardi. Hudda aholining ko'pligi va

qatnovdagi qiyinchiliklar odamlar uchun ko'plab noqulayliklar tug'dirardi. Ana shunday vaziyatda mahalla tadbirkorlaridan biri o'z mablag'i hisobidan poliklinika qurib berishni zimma-

siga oldi va 5 oy ichida bu ish amalga oshirildi. 20 xonadan iborat muassasa Sog'liqni saqlash vazirligining tegishli dasturi asosida jihozlanib, aholiga malakali birlamchi tibbiy xizmat ko'rsatish uchun imkoniyat yaratildi va birinchi tipdagi 51-oilaviy poliklinika tashkil etildi.

– Mahalla ahli endilikda shu yerda oilaviy shifokor nazoratida bo'lib, tor soha mutaxassislari ko'rigidan o'tishi, turli tahlillar-ni topshirishi mumkin, – deydi 51-oilaviy poliklinika mudiri Nishonboy Nurmatov. – Shuningdek, 6 o'rinni kunduzgi stasionar ham mavjud. Bu hudud aholisi uchun juda katta qulaylik bo'ldi hamda 20-G'o's oilaviy poliklinikasi yuklamasini ham kamaytirdi. Shu paytgacha mahalla markazidagi ikkita xonada faoliyat olib borgan tez tibbiy yordam shoxobchasi uchun ham yangi binodan joy ajratildi.

Shuningdek, hududdagi Soy Guzar mahallasida 40 o'rinni reabilitatsiya markazi ham foydalanishga topshirildi. E'tiborlisi, mazkur bino ham mahalliy tadbirkor tomonidan homiylik asosida qurilib, aholiga tuhfa qilindi. Markaz hududdagi besh mahalla aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatadi.

Yangi binolarning ochilish marosimida viloyat hokimi A.Boboyev ishtirok etib, ezgu ishga bosh qo'shgan tadbirkorlarga minnatdorlik bildirdi, tibbiy muassasalarda yaratilgan sharoit va imkoniyatlar bilan tanishdi.

Bog'ichinorliklarning orzusi ushaldi

Toyloq tumani Bog'ichinor mahallasidagi bir necha yildan buyon nosoz bo'lgan suv inshooti 5 milliard so'm mablag' evaziga rekonstruksiya qilinib, 860 ta xonadon, ya'ni 4,3 ming nafar aholi ilk bor markazlashgan toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi.



Shu yilning aprel oyida viloyatimizda bo'lgan Prezident Administratsiyasi rahbari S.Mirziyoyeva Toyloq tumani Bog'ichinor mahallasi aholisi bilan uchrashganda hududda markazlashgan toza ichimlik suvi muammosi borligi qayd etilgan va bu masala uch oy ichida hal etilishi aytilgandi.

Belgilangan chora-tadbirlar asosida qisqa vaqtda suv inshooti rekonstruksiya qilinib, bitta yangi suv qudug'i qazildi, har biri 250 kub metr bo'lgan suv saqlash hovuzi qurildi, 12 kilometr masofaga yangi suv tarmog'i tortildi. Bu ishlar bilan birga mahalla hududida keng ko'lami obodonlashtirish ishlari ham amalga oshirildi va Bog'ichinor bugun ko'rkam maskanga aylandi.

Suv inshootini foydalanishga topshirish marosimida viloyat hokimi A. Boboyev ishtirok etib, bu o'zgarishlar davlatimiz rahbarining inson qadrini

ulug'lashga qaratilgan islohotlarining bir ko'rinishi ekanligini ta'kidladi.

Shu kuni Toyloq tumanida Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligiga tuhfa sifatida yana bir qator yangi obyektlar ochildi.

Jumladan, Sochak mahallasida "ORZU ABLAKULOV SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan zamonaviy mebel va mebel mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi korxona faoliyat boshladi va bu yerda 50 kishining bandligi ta'minlandi. Varsin mahallasi hududida esa "BRO BEANS" qo'shma korxonasi tomonidan turkiyalik tadbirkor bilan hamkorlikda xususiy maktab va logistika markazi tashkil etildi. Mazkur loyiha tufayli bu yerda yiliga 55 milliard so'mlik xizmatlar ko'rsatish va 90 kishining bandligini ta'minlash imkoniyati yaratildi.

Akmal MIRZOYEV.

Samarqand shahridagi Yoshlar markazida Do'stlik festivali bo'lib o'tdi.

Milliy madaniy markazlar, turli millat va elat vakillari hamda keng jamoatchilik ishtirok etgan tadbirda viloyat hokimi o'rinbosari B.Karimov so'zga chiqib, mamlakatimizda qaror topgan tinchlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenlik muhiti Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim omillaridan biri ekanini ta'kidladi.

Bayram doirasida viloyatda millatlararo hamjihatlikni mustahkamlashga munosib hissa qo'shib kelayotgan milliy madaniy

Qudratimiz – birlik va hamjihatligimizda

markazlar rahbarlari va bir guruh faollar viloyat hokimining tashakkurnomasi hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

– BMT Bosh Assambleyasi qarori bilan 30-iyul – Xalqaro do'stlik

30-iyul – Xalqlar do'stligi kuni



kuni sifatida nishonlanadi, – dedi Tojik va tojikzabon milliy madaniy markazi raisi Shuhrat Samatov. – Bu kabi festivallar xalqimizning asrlar davomida shakllangan bag'rikenlik, o'zaro hurmat va ahillik kabi ezgu qadriyatlarini yanada mustahkamlashga, jamiyatimizda fuqarolar birdamligini keng targ'ib etishga xizmat qiladi.

Tadbinning badiiy qismida namoyish etilgan turli xalqlarning milliy kuy-qo'shiqlari va jozibador raqslari yig'ilganlarga bayramona kayfiyat ulashdi.

B.MUSTANOV.

INDALLOSINI AYTGANDA...

Farida AFRO'Z, shoira:

– Mijjalari yoshlanib turgan onadan shaxslar tug'ilmaydi – mutelar, qullar, tobelar tug'iladi.



Viloyat hokimi
Kimyogarlar shaharchasida aholi muammolarini o'rgandi



Samarqandda "Yil o'qituvchisi"
ko'rik-tanlovining Respublika bosqichi o'tkazilmoqda



Dunyoning turizm darvozasi



SamDUda
sun'iy intellekt laboratoriyasi tashkil qilingan

MUSTAQILLIK

35



YIL

1991-2026

1999-YIL

MART

Samarqand shahrida turkiyalik ishbiarmonlar hamkorligida “Sam Koch Avto” korxonasi tashkil etildi.

2000-YIL

MAY

15-may kuni Samarqandda xalqaro “Chellenjer” turniri ochildi. Unda dunyoning o‘n besh mamlakatidan kelgan yetakchi raketkachilar ishtirok etdi.

2001-YIL

YANVAR

Samarqandda Amir Temur jamg‘armasi tuzildi.

Italiyaning Torre del Greko shahrida “Samarqand javohirlari” ko‘rgazmasi ochildi.

NOYABR

4-noyabrda Bibixonim tavalludining 660 yilligi nishonlandi.

DEKABR

YUNESKO Jahon merosi qo‘mitasining 12-16-dekabr kunlari Finlandiyaning Xelsinki shahrida o‘tkazilgan yig‘ilishida Samarqand YUNESKOning jahon merosi ro‘yxatiga kiritildi.

2002-YIL

MAY

Urgut tumanida “Urgaz Carpet” gilam ishlab chiqarish korxonasi tashkil etildi.

OKTABR

19-oktabr kuni BMT Bosh kotibi Kofi Annan Samarqandga keldi.

2003-YIL

FEVRAL

Viloyat 1-son birlashgan shifoxonasida 50 o‘ringa mo‘ljallangan mikroxirurgiya va qon tomirlari jarrohligi markazi ish boshladi.

SENTABR

Samarqand shahrida to‘rt yulduzli “Prezident” mehmonxonasi foydalanishga topshirildi.

DEKABR

20-dekabr kuni Turkiya Respublikasi Bosh vaziri Rejep To‘yib Erdog‘an boshchiligidagi delegatsiya Samarqandga keldi.

2004-YIL

APREL

Samarqand shahrida “Samarqand-tola” O‘zbekiston-Latviya va Samarqand tumanida “Maroqand-parranda” O‘zbekiston-Amerika qo‘shma korxonalari ish boshladi.

SENTABR

Bulung‘ur tumanida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi “Arto-Bulung‘ur” O‘zbekiston-Qozog‘iston qo‘shma korxonasi ish boshladi.

NOYABR

15-noyabr kuni Samarqand shahrida “Xotira maydoni”ning ochilish marosimi o‘tkazildi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga sifatli ta’lim, tibbiy xizmat va xavfsiz muhit yaratishga alohida e’tibor qaratmoqda. Chunki mamlakatning ertangi kuni aynan bugungi yosh avlodning qanday tarbiya topishiga bog‘liq.

Yurtimizda ham bolalarni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu borada qonunchilik takomillashtirilmoqda, ta’lim va tibbiyot sohalarida yangi imkoniyatlar yaratilmoqda, bolalar xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ta’sirchan mexanizmlar joriy etilmoqda.

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvar holatida mamlakatimizda 14 yoshgacha bolalar soni 11 million 630 ming 879 nafarni tashkil etadi. Bu aholining katta qismini tashkil qilgani uchun davlat zimmasiga bolalarning ta’limi, sog‘lig‘i, huquqlari va ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish vazifasini yuklaydi.

BOLALAR HUQUQLARI QONUN BILAN HIMOYA QILINGAN

O‘zbekiston 1992-yilda BMTning "Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasiga qo‘shilgan. Shu vaqtdan boshlab bolalar huquqlarini ta’minlash davlat siyosatidagi asosiy tamoyillardan biri bo‘lib kelmoqda. Bu tamoyillar yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham mustahkamlangan. Konstitutsiyaning 50-moddasiga muvofiq, davlat har bir insonning ta’lim olish huquqini kafolatlaydi, uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantiradi hamda bepul umumiy o‘rta va boshlang‘ich professional ta’limni ta’minlaydi.

Yangi Konstitutsiyaning muhim yangi-liklaridan biri — alohida ta’limga ehtiyoj bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanganidir. Bu barcha bolalar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratishga xizmat qiladi.

TA’LIM — KELAJAKKA ENG MUHIM SARMOYA

"O‘zbekiston – 2030" strategiyasida bolalarni erta yoshdan sifatli ta’lim bilan qamrab olish, ularning qobiliyatini rivojlantirish va kasbga yo‘naltirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Buning asosiy maqsadi bilimli, zamonaviy

BOLAning begonasi bo‘lmaydi, ularning har biri davlat e’tiborida



kasblarni egallagan, mehnat bozori talablari-ga mos kadrlarni tayyorlashdir. Mutaxassis-lar ta’kidlashicha, inson kapitaliga kiritilgan sarmoya mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat-ga ega.

HECH BIR BOLA E’TIBORDAN CHETDA QOLMAYDI

Keyingi yillarda alohida ehtiyojli va ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo‘llab-quvvat-lashga ham katta e’tibor qaratilmoqda. 2030-yilga qadar inklyuziv ta’lim bilan qamrovi 1 ming nafarga yetkazish, nogiron-ligi bo‘lgan bolalar uchun kunduzgi parvarish xizmatlarini 4,5 ming nafargacha kengayti-rish rejalashtirilgan.

Shuningdek, yetim va ota-ona qara-mog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning jamiyatga moslashuvini kuchaytirish, ularning mustaqil hayotga tayyorgarligini oshirish bo‘yicha ishlar davom ettirilmoqda.

Sog‘liqni saqlash sohasida ham muhim vazifalar belgilangan. Xususan, chaqaloq-larda hayot uchun xavfli tug‘ma nuqsonlar ko‘rsatkichini deyarli ikki barobar kamaytirish maqsad qilingan.

BOLALAR XAVFSIZLIGI YANGI BOSQICHGA CHIQMOQDA

Prezidentimizning 2026-yil 16-fevraldagi “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuk-saltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni asosi-da bolalar xavfsizligi va huquqiy himoyasini ta’minlashning yangi kafolatlari joriy etildi. Mazkur hujjatlar bolalarni har qanday shakl-dagi zo‘ravonlik, tazyiq va ekspluatatsiyadan muhofaza qilish mexanizmlarini takomillashti-rishga qaratilgan.

Unga ko‘ra, endi voyaga yetmaganlarga nisbatan zo‘ravonlik sodir etgan shaxslar-ning ta’lim, tarbiya va sport muassasalarida ishlashiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Maktab va bog‘chalarda videokuzatuv tizimlari o‘rnatilib, yozuvlarni kamida olti oy saqlash majburiy etib belgilandi. Bu holatlar yuzasidan tezkor chora ko‘rish va bolalar xavfsizligini ta’minlash imkoniyatini oshiradi.

Zo‘ravonlikdan jabrlangan bolalarga dav-lat hisobidan bepul yuridik yordam ko‘rsatish tartibi ham yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodim-

lari va advokatlar uchun bolalar bilan ishlash bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari tashkil etilmoqda.

Yana bir muhim yangilik — tibbiy, psix-ologik va huquqiy yordamni bir joyning o‘zida ko‘rsatuvchi "Barnaxus" modelini joriy etish bo‘ldi. Bu tizim bolaga bir necha idor-aga murojaat qilish zaruratini kamaytiradi va yordamni tezroq olish imkonini beradi.

Bolalarni internetdagi tahdidlar, kiber-bulling va boshqa xavflardan himoya qilish uchun esa 24/7 monitoring tizimini joriy etish rejalashtirilgan.

BU O‘ZGARISHLAR OILALARGA QANDAY FOYDA BERADI?

Amalga oshirilayotgan islohotlar har bir oila hayotiga bevosita ta’sir qiladi.

Maktabgacha ta’lim qamrovining ken-gayishi farzandlarni bog‘chaga joylashtir-ish imkoniyatlarini oshiradi, ota-onalarning qo‘shimcha xarajatlarini kamaytiradi hamda onalarning mehnat bozoriga qaytishi uchun qulay sharoit yaratadi.

9-sinf bitiruvchilarining yarmini kasb-hu-narga yo‘naltirish rejasi yoshlarning kasb egallashi va keyinchalik ish topish imkoniyat-larini oshirishga xizmat qiladi. Xususiy ta’lim muassasalari sonining ko‘payishi esa ta’lim sohasida raqobatni kuchaytirib, sifatning oshishiga turtki beradi.

Maktab va bog‘chalarda xavfsizlik cho-lalarining kuchaytirilishi, videokuzatuv tizim-larining o‘rnatilishi va zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarning ta’lim tizimiga kirishi cheklanishi bolalar uchun yanada xavfsiz muhit yaratadi.

Inklyuziv ta’lim va kunduzgi parvarish xizmatlarining kengayishi esa alohida eh-tiyojli bolalarning jamiyatga moslashuvini osonlashtirib, ularning ota-onalariga ham qo‘shimcha yengilliklar yaratadi.

XULOSA

Bolalar huquqlarini himoya qilish, ularning sifatli ta’lim olishi, sog‘lom o‘sishi va xavfsiz muhitda voyaga yetishini ta’minlash Yangi O‘zbekistonda davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

"O‘zbekiston – 2030" strategiyasi, Konstitutsiyadagi yangi normalar va qabul qilinyotgan davlat dasturlari bu yo‘nalish-dagi ishlarni izchil davom ettirishga xizmat qilmoqda. Bu islohotlarning asosiy maqsa-di esa har bir bolaga o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun teng imkoniyat yara-tish va mamlakat kelajagini bilimli, sog‘lom hamda barkamol avlod bilan ta’minlashdan iborat.

Kamola AGZAMOVA,
"Taraqqiyot strategiyasi" markazi bosh mutaxassisi.

Bir kvadrat metrdan oshmaydigan banner uchun hujjat rasmiylashtirilmaydi



Davlat tilining amaldagi ijrosini ta’minlash maqsadida 2020-yilda hokimliklar huzurida hokimning ma’naviyat va davlat tili bo‘yicha maslahatchisi vazifasi joriy etildi. Xo‘sh, mazkur vazifada faoliyat yuritayotgan til maslahatchilari shu paytga qadar qanday ishlarni amalga oshirdi? Samarqand tumani hokimining ma’naviyat va davlat tili bo‘yicha maslahatchisi Manuchehr Murtozaqulov bilan suhbatimiz ayni shu mavzuda bo‘ldi.

- Mazkur vazifada ish boshlaganimga bir yil bo‘ldi, - deydi M.Murtozaqulov. - Bungacha tumanda barcha qishloq, ovul, ko‘cha va qabristonlarni nomlash tugatilgan. Shuningdek, davlat tilida bo‘l-magan tashqi reklamalarni tuzatish, noqonuniy o‘rnatilganlarini oldir-ish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Hozir ham bu ishlar davom etyapti. Masalan, keyingi bir yil davomida tumanda 1425 ta o‘zgartirilishi lozim bo‘lgan tashqi yozuvlar aniqlandi. Olib borilgan tushuntirish, targ‘ibot ishlari natijasida ularning 661 tasi o‘zgartirildi. Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasiga 180 ta jarimaga tortish bo‘yicha xat berildi, 84 tasi my.gov.uz portali orqali tashqi reklamaga ariza topshirdi. 56 nafar tadbirkorga nisbatan jarima qo‘llanildi.

Tadbirkorlarga "Davlat tili haqida" hamda "Reklama to‘g‘risida”gi qonunlar bo‘yicha tushuntirish ishlari olib borildi. Noqonuniy ravishda o‘rnatilgan reklama bannerlari, do‘kon peshlavalari va turli e’lonlar olib tashlandi.

- Bugun tumanda davlat tiliga amal qilmagan, chet tilida yozilgan yoki qonunga xilof ravishda o‘rnatilgan reklama va e’lonlar qolmadi, deb ayta olasizmi?

- Bilasiz, tumanimizda tadbirkorlar ko‘p. Ularning ichida xatosini tushunadiganlari bor. Biz tushuntirish ishlarini olib borgach, ular tez-da davlat tiliga mos kelmagan yoki xato yozilgan reklama va e’lonla-rini olib tashlaydi. Oradan bir muncha vaqt o‘tgach, tadbirkor ijarada turgan bo‘lsa va ijaradan chiqib ketsa, o‘rniga boshqa tadbirkor keladi. Yangi kelgan tadbirkor yana o‘z reklamasiini chiqarib qo‘yadi. Shuning uchun ayrim joylarda haliyam xato yozilgan, qonun-qoidalar-ga amal qilinmagan reklama va e’lonlar bor.

- Hamon ko‘chalarda xorijiy tilda nomlangan do‘kon, xususiy korxona va tashkilotlarga ko‘zimiz tushadi. Ular qaysi tashkilot ruxsati bilan bunday nomlarni qo‘yib olgan?

QQS “nol”

stavkasi qishloq xo‘jaligida yangi imkoniyatlar yaratdi

Prezidentimizning 2025-yilda tadbirkorlar bilan o‘tkazgan ochiq muloqotida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) stavkasini 12 foizdan “nol” qiymatga tushirish yuzasidan bildirgan taklifim inobatga olindi.

Prezidentimizning 2025-yil 4-sentabrdagi “Qishloq xo‘jaligi sohasida qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash-niing soddalashtirilgan tartibini joriy etish chora-tadbiri-lari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, 2026-2027-yillar-da qishloq xo‘jaligi sohasida rasmiy tovar aylanmasini kamida 3 baravar oshirish asosiy maqsad sifatida belgilandi. Farmonga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvardan boshlab qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan yetishtirilgan mahsulotlar (paxta va g‘alla bundan mustasno) realizatsiyasi uchun QQSning “nol” stavkasi joriy etildi.

Yangi tartibga muvofiq, ishlab chiqarish ja-rayonida xarid qilingan tovar va xizmatlar uchun to‘langan QQS summasi belgilangan tartibda qaytarib beriladi. Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun ushbu to‘lovlarni qaytarish (qoplash) 3 kun muddatda avtomatlashtirilgan tarzda amalga oshirilishi belgilangan.

Shuningdek, Soliq qo‘mitasi tomonidan Xalqaro valyuta jamg‘armasi ekspertlari bilan hamkorlikda elektron hisobvara-q-fakturalar bo‘yicha real vaqt rejimida tahlil qilishning avtomatlashtirilgan tizimi joriy etilmoqda. Bunda yuqori xavf darajasidagi operat-siyalar belgilangan mezonlar asosida nazorat qilinadi.

QQS stavkasining 12 foizdan “nol” qiymatga tushirilishi natijasida yaratil-gan imkoniyatlar hisobiga Samarqand tumani Ohalik massivida yiliga 300 ming nafar mahalliy va xorijiy tur-istlarga xizmat ko‘rsata oladigan zamonaviy turizm markazi loyihasi amalga oshirilmoqda.

Bekzod AHMEDOV,
"QO‘SHRABOT BOKSMEER PARRANDA" MChJ rahbari.

- Tadbirkorlar faoliyatini boshlayotganda Davlat xizmatlari markazlaridan guvohnoma ola-di. Shu paytgacha guvohnoma olishda tadbirkor tomonidan berilgan nomlar tasdiqlanayotgandi. Hozircha shu masala ham o‘rganilyapti, ya’ni nom berish masalasi takomillashtirilmoqda. Masalan, tadbirkor tanlagan nom til maslahatchilari tas-diqlaganidan keyin berilsin, degan taklif bor. Lekin hali amalda joriy qilmagan.

- Til maslahatchilari shvati berilganda endi ko‘chalardagi xorijiy yozuvlarning hammasi davlat tilida yoziladi, deyilgandi. Lekin hamon xorijiy nomdagi do‘kon, korxona va tashkilotlar bunga amal qilmayapti. Ularga til maslahatchilari ta’sir o‘tkaza olmayaptimi?

- Bizda tadbirkorga nisbatan jarima qo‘llash vakolati yo‘q. Faqat tadbirkorni ogohlantiramiz xolos. Tadbirkor korxona nomini o‘zgartirmasa, biz Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasiga xat bilan chiqamiz. Ular ko‘rib chiqadi va sud orqali tadbirkorga nisbatan jarima qo‘llaniladi. Jarima qo‘llanilgach, tadbirkorlar qonunga xilof ravishda yozilgan nomlarni olib tashlaydi.

- Ko‘chalarga reklama yozuvlari qo‘yishning qanday tartibi bor?

- Bu bo‘yicha "Reklama to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan me’yorlar bor. Bir kvadrat metrdan oshmagan holatda dav-lat tilida, lotin alifbosida reklama joylashtirish mumkin. Bunga hech qanday hujjat rasmiylashtirmaydi. Agar reklama 4-5 metrii katta bannerda bo‘lib, xorijiy tilda yozilgan bo‘lsa olib tashla-nadi. Reklama matni davlat tilida, lotin yozuvida bo‘lib, pastidan xorijiy tildagi tarjimasi umumiy reklama maydonining qir-q foizidan oshmasligi kerak. Ba’zilar buni tushunmasdan reklama matnining tagiga xorijiy tilda boshqa so‘zlarni yozib qo‘yyapti. Ularga bir-dan jarima qo‘llamaymiz, sababi jarimalar summasi katta. Shuning uchun dastlab tadbirkorlarga tushuntirish ishlarini olib boramiz. Ho-zirgi kunda bunday jarimalar 20 million 600 ming so‘mga yetdi.

Xurshida ERNAZAROVA
suhbatlashdi.



«Yashil» texnikum:

Barqaror kelajak va ekologik toza hudud sari muhim qadam

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 25-martda qabul qilingan “Eko-madaniyat” umummilliy loyihasi doirasida ekologik taʼlim, ilm-fan va targʻibotni jadallashtirishga oid kompleks chora-tadbirlar toʻgʻrisida”-gi qarorida 2026-2027-yillar davomida respublikaning har bir hududida oʻrta boʻgʻin kadrlarini tayyorlaydigan bittadan “yashil” texnikumlar faoliyatini yoʻlga qoʻyish belgilangan. 2030-yilgacha mazkur texnikumlarda 10000 nafar oʻrta boʻgʻin kadrlarini tayyorlash uchun ekologik taʼlim va ilm yanada rivojlan-tiriladi. Qarorga muvofiq, ushbu innovatsion taʼlim muassasasi Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim oʻzgarishini oʻrganish uni-versiteti (Green University) huzu-rida oʻz faoliyatini boshlaydi.

Qaror ijrosini taʼminlash maqsadida Samarqand shahar 5-son texnikumi viloyatning “yashil” texnikumiga aylantirildi.

Viloyatning shahar va tu-manlarida ekologik muvozanatni saqlash uchun sohaga innovat-sion yondashuvlarni olib kiradi-gan, zamonaviy amaliy bilim-larga ega boʻlgan oʻrta boʻgʻin mutaxassislarga bugun talab har qachongidan ham yuqori. Yangi texnikum hududning oʻziga xos boʻlgan ekologik, geografik va yirik agrosanoat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda malakali mutaxassislar tayyorlashni maqsad qilgan. Mazkur taʼlim maskanida qayta tiklanuvchi energiya manbalari,

chiqindilarni samarali qayta ishlash, zamonaviy «yashil» tex-nologiyalar hamda suv resurs-larini oqilona boshqarish kabi dolzarb yoʻnalishlar boʻyicha oʻrta boʻgʻin kadrlari oʻqitiladi.

Texnikumga ekologiya sohasida 13 ta yoʻnalishdagi mutaxassisliklar boʻyicha 510 ta (9-sinf bazasi uchun – 180 ta, 11-sinf bazasi uchun esa 330 ta) oʻrin ajratilgan. “Yashil” texnikumda oʻquvchilar eko-log-laborant, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ustasi, dendrologiya va landschaft agronomiyasi, intensiv bogʻlar laboranti, oʻsimliklarni himoya qilish laboranti, baliqchilik va “akva kultura” ishchisi, bux-galter-auditor mutaxassislilklari boʻyicha “yashil” texnologiyalarni amaliyotga joriy etish boʻyicha chuqur bilim va koʻnikmalarga ega boʻladi.

11-sinf bitiruvchilari dual taʼlim tizimi asosida haftanaviy belgilangan kunlarida nazariy bilim olib, boʻsh kunlarida hamkor korxonalarda maosh toʻlan-adigan ish oʻrinlarida ishlaydi. Shuningdek, muassasada taʼlim oluvchi yoshlar uchun keng koʻlamli imkoniyatlar va ragʻbatlantirish tizimi yaratiladi. Xususan, iqtidorli oʻquvchilar uchun maxsus ekostipendiyalar joriy etilib, ilmiy va amaliy loyi-halar yaratgan oʻquvchilarga maxsus jamgʻarma hisobidan bir martalik pul mukofotlari beriladi. Eng faol yoshlar «Yosh ekolog» koʻkrak nishoni bilan taqdirlanadi. Oʻquvchilar uchun

oʻrmon xoʻjaliklari, gidrometeo-rologiya stansiyalari, muhofa-za etiladigan tabiiy hududlar, chiqindi poligonlari, botanika va dendrologiya bogʻlari, hayvonot bogʻlari, botanika va zoologiya institutlarining amaliyot uchast-kalari tashkil etiladi.

“Yashil” texnikumlar mam-lakatimizda aholi orasida ekologik odatlarni shakllanti-rish, taʼlim muassasalari faoli-yatining barcha bosqichlarini xalqaro standartlar hamda ekologik meʼyorlar asosida qa-yta yoʻlga qoʻyish, shuningdek, “Eko-madaniyat” umummilliy loyihasi doirasida maxsus bilim va koʻnikmalarga ega boʻlgan malakali mutaxassislarni dual taʼlim shaklida tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirib borish imkoniyatlarini yaratadi. Texnikumda ekostipendiya taʼsis etiladi va har yili 10 nafargacha iqtidorli oʻquvchilarga maxsus jamgʻarma mablagʻlari hisobidan mehnatga haq toʻlashning eng kam miqdoridan kam boʻlmagan miqdorda stipendiya toʻlanadi. Shuningdek, “yashil” texni-kumlarni muvaffaqiyatli bitirgan bitiruvchilarga “Green Univer-sity” tomonidan belgilangan ballar oʻrtacha qiymatidan kelib chiqib, bakalavriatning ikkinchi bosqichidan oʻqishni davom ettirishga ruxsat beriladi.

Soli BOZOROV,
Samarqand viloyati
“Yashil” texnikumi direktori,
professor.
Umida XOLMIRZAYEVA,
texnikum oʻqituvchisi.

Arzonlashgan dorilar

roʻyxatini qayerdan koʻrish mumkin?

2026-yil 1-iyuldan boshlab aholi eng koʻp foydalanadigan 2,5 ming nomdagi retsept asosida beriladigan dori vositalari uchun yangi cheklangan narxlar joriy etildi. Yangi tartibga koʻra, ayrim dori vositalari narxi 50 foizgacha arzonlashgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligining tegishli buyrugʻi bilan retsept asosida beriladigan dori vosi-talari narxlarini qayd etish tartibi belgilandi. Mazkur tartib-ga muvofiq, referent narxlar belgilanishi xalqaro amaliyot asosida shakllantirilib, ularni hisoblashda oʻrtacha narxlar ishlab chiqaruvchi mamlakatlardagi narxlar hamda soʻnggi 12 oy davomida Oʻzbekistonga import qilingan dori vosita-lari boʻyicha shartnomalar narxlari inobatga olinadi.

2026-yil 1-aprel holatiga koʻra, qariyb 2,5 ming nomdagi retsept asosida beriladigan dori vositalarining cheklangan narxlari shakllantirildi va eʼlon qilindi. Ushbu narxlar 2026-yil 1-maydan ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilar, 1-iyundan distribyutorlar, 1-iyuldan boshlab esa dorixonalar uchun kuchga kirdi.

Xususan, ushbu tartibga koʻra,
antibiotiklar — 50 foizgacha;
yurak-qon tomir kasalliklarini davolash dorilari — 37 foizgacha;
asab tizimi uchun dori vositalari — 40 foizgacha;
yalligʻlanishga qarshi va ogʻriq qoldiruvchi preparatlar —

Xazinamiz oʻz qoʻlimizda ekan

► Soʻz – yoshlarga

Muvaffaqiyat nafaqat oldinga maqsad qoʻyib erishishda, balki erishilgan maqsadlarga, neʼmatlarga shukr qilib, yana oldinga qadam bosishda namoyon boʻladi. Inson erishgan yoxud oʻzida boʻlgan qadr-qimmatni eʼzozlay olmasa, katta yutuqlarni ham qadrlay olmaydi.

Muvaffaqiyatga erishgan insonlar nafaqat bu natijani, balki uning qiy-matini ham yaxshi bilishadi. Atrofimga qarab, shunday xulosaga keldim: hozir odamlar koʻpincha muvaffaqiyatga eri-shishdagi yoʻlning qadriini emas, balki muvaffaqiyatning oʻzini ustun qoʻyad-ilar. Achinarlisi shundaki, bu ularning eng ustun neʼmati - sogʻligʻini, ha-yot zavqini unutilib qoʻyishiga sabab boʻlmoqda. Shu yerda menda bir savol tugʻiladi: agar sizning sogʻligʻingiz, maqsadingizga erishish uchun kuchin-giz boʻlmasa, oldingizga qoʻygan biron bir maqsadga erisha olarmidingiz? Albatta, yoʻq. Chunki bu neʼmatlarning oʻrni beqiyos. Biroq ularning qadriga yetmaslik, eʼtiborga olmaslik bizlarga har qanday mashaqqatdan ham ziyod-

roq ziyon yetkazmoqda. Bir necha kun oldin oʻzim ham shunday holatga tushdim. Maqsadlarim ortidan yugurib, sogʻligʻim va dam olishimning qadriini unutayotganimni sezdim. Katta natija-ga qarab harakat qildim va... toʻsatdan sogʻligʻim yomonlashdi.

Aynan shu payti hayotimni tahlil etishga kirishdim. Shunda muvaffaqi-yat haqida boshqacha oʻylay bosh-ladim. Shuni angladimki, muvaffaqiyat nafaqat erishilgan yutuqda, balki sizda bor eng qadrli boyligingiz - sogʻligin-gizda boʻlar ekan. Oʻsha kunlarda men ham bir vaqtni oʻzida loyihamni shakl-lantirish, hujjatlar bilan shugʻullanish, imtihonlarga tayyorlanish, xullas, oʻz maqsadlarimga erishish bilan band boʻlib, qay darajada sogʻligʻim yo-

monlashayotganini sezmay qolibman. Aytishadi-ku “Biror narsaning qadri-ni uni yoʻqotgach anglaysan” deb. Mening oldinga qoʻygan maqsadlarim muhim edi, biroq qancha koʻp ish-larimga ahamiyat bersam, shuncha kam sogʻligʻimni qadrlayotganimni angladim.

Sizning fikringizcha, sogʻligʻi yomonlashgan, kundan-kunga qal-bi qotib borayotgan inson harakatda davom eta oladimi? Men bu “hayot sabogʻi”dan shuni tushundimki, mu-vaffaqiyat faqat natija emas, u yoʻlning oʻzi hamdir. Baʼzan toʻxtab nafas rost-lash, yaqinlar bilan suhbatlashish, dam olish ham kelajakdagi yutuqlarning bir qismi hisoblanadi.

Shukr qilishni bilgan inson erishgan narsalarining qadriga yetadi. Qadriga yetgan inson esa ulardan toʻgʻri foyda-lanadi. Ana shunda odamning muvaf-faqiyati mustahkam boʻladi.

Aliakbar TOʻRAYEV,
Samarqand shahri,
Saxovat mahallasi.

REKLAMA, EʼLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va eʼlonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

QURILISH MATERIALLARI SOTILADI

Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi tizimiga qarashli obyekttni rekonstruksiya qilishdan chiqqan qurilish materiallari belgilangan tartibda oʻtkazilgan baholash xulosasiga muvofiq qiymatda sotiladi.

Qurilish materiallarini koʻzdan kechirish dushanbadan jumagacha soat 09:00 dan 18:00 gacha amalga oshiriladi.

Qurilish materiallarini sotib olish istagida boʻlgan jismoniy va yuridik shaxslar quyidagi manzilga murojaat qilishlari mumkin.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy koʻchasi, 174-uy.

Murojaat uchun telefon: (+998 55) 706-93-09.

Qoʻshimcha maʼlumotlar murojaat etilganda taqdim etiladi.

DAʼVOLAR BOʻLSA!

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Raxmatullayeva Saboga (1999-yil 8-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy koʻchasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Maxmudov Baxron Naimovichga (2010-yil 19-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy koʻchasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasida marhum Kosimova Kifoyatga (1998-yil 29-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gulobod koʻchasi, 5-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Axtamov Axlamga (2003-yil 27-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur koʻchasi, 154-“A”uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Kadirov Davron Karimovichga (2025-yil 4-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy koʻchasi, 126-uy, 4-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Mirzayev Hamid Azimurodovich notarial idorasida marhum Djurakulov Zahidjonga (2020-yil 25-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Mirzayev Hamid Azimurodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yoʻl koʻchasi, 9-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan

shugʻullanuvchi notarius Qodirov Ulugʻbek Tolibovich notarial idorasida marhum Rashidov Mansur Majidovichga (2020-yil 10-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Qodirov Ulugʻbek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino koʻchasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Qodirov Ulugʻbek Tolibovich notarial idorasida marhum Saliyeva Mexriga (2015-yil 26-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Qodirov Ulugʻbek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino koʻchasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Xoʻjamqulov Husan Oʻrinboyevich notarial idorasida marhum Karimkulov Shavkatga (2021-yil 5-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Xoʻjamqulov Husan Oʻrinboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur koʻchasi, 152-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Axtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasida marhum Ostanov Shodiga (2018-yil 14-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Axtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand tumani Yangiariq mahallasi.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan oʻgʻli notarial idorasida marhum Minbayev Aminjon Axtakulovichga (2003-yil 2-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Davronov Mahmud Hasan oʻgʻli notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bagʻrikenglik koʻchasi, 4-uy.

Ishtixon tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Aliyev Sardorbek Akmaljon oʻgʻli notarial idorasida marhum Quvvatov Nafasga (2000-yil 13-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning

Aliyev Sardorbek Akmaljon oʻgʻli notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Ishtixon tumani Ishtixon koʻchasi, 43-uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Saʼdullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Ergashev Batir Ismoilovichga (2025-yil 11-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Saʼdullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur koʻchasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Qarshiyev Furqat Ungalovichga (2024-yil 10-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol koʻchasi, 110-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Joʻrayev Asliddin Bekmurotovichga (2026-yil 7-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol koʻchasi, 13-uy.

BEKOR QILINADI!

Payariq tumanidagi «MONTAJ QURILISH 2020» masʼuliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 306570119) dumaloq muhri va burchak tamgʻasi yoʻqolganligi sababli bekor qilinadi.

Payariq tumanidagi «UCHQUN» fermer xujaligining (STIR: 200761726) “D-4” dumaloq muhri va burchak tamgʻasi yoʻqolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!

Fuqaro Aliyev Elyor Berdimurodovichning haydovchilik guvohnomasi (AF № 0540063, 2019-yil 6-fevralda Samarqand viloyati IIB YHXB 3-TRIB tomonidan berilgan) Ishtixon tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini soʻraymiz.

Telefon: (+99850) 404-41-83.

(Davomi. Boshlanishi oʻtgan sonlarda).

Amir Temur oʻz davlatining shon-shuhrati uchun uning markaziy qismi boʻlgan Movarounnahr, ayniqsa, poytaxt Samarqandning obodonchiligiga alohida ahamiyat bergan. Uning har bir zafarli voqeani, sevinchli hodisani muhtasham meʼmorlik obidasini barpo etish bilan nishonlash odati boʻlgan. Shu maqsadda hindistonlik yuzlarcha mohir gʻisht teruvchilar, Sheroz, Isfaxon va Damashqning mashhur usta-hunarmandlari qatorida yerli ustalar mamlakatda ulugʻvor, serhasham imoratu inshootlar bino qiladilar.

Amir Temur TURON davlatini qanday boshqargan?

Sohibqiron Tabrizda jome masjidi, Sheroz-da saroy, Bagʻdodda madrasa, Turkistonda mashhur shayx Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara bino qildirdi. U oʻzining saxovati va himmatini, xususan, Shahrisabz va Samarqandda oliy imoratlar qurdirishda koʻrsatdi. Shahrisabzda otasi va oʻgʻli Jahongirning qabrlari ustiga maqbara barpo etib, jome masjidi qurdirdi. Shahrisabzda mashhur Oqsaroy qad koʻtardi. Bu muhtasham oliy imorat peshtoqi, toqu ravoqlari, gumbazu devorlari zangori va oltin rangdagi naqshli koshinlar, guldor oʻymakor parchinlar esa oyatu turli mazmundagi bitiklar bilan ziynatlandi. Shahrisabzdagi qarorgoh – Oqsaroyning koshinkor va parchinkor peshtoqi guldor naqshlari orasiga “Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang qurgan imoratlarimizga boq” degan xitobnoma bitilgan. Turkiston shahrida Ahmad Yassaviy maqbarasini bino qilishda ham shunday maqsad nazarda tutilgan.

Bu koʻhna dunyo tarixida qator jahongirlar hukmronlik qilib oʻtgan. Ularning aksariyati oʻzidan faqat kulturega aylangan vayronalarinigina qoldirgan. Ulardan farqli oʻlaroq, Amir Temur umr boʻyi bunyodkorlik bilan mashgʻul boʻlgan. Uning “Qay bir joydan bir gʻisht olsam, oʻrniga oʻn gʻisht qoʻydim, bir daraxt kestirsam, oʻrniga oʻnta koʻchat ektdim”, degan soʻzlari buning yorqin isbotidir. Chingizxon bosqini davomida butunlay vayron etilgan Samarqand shahri Sohobqiron davrida oʻzining qadimgi oʻrnidan birmuncha janubroqda boshdan oyoq yangidan qayta qurildi. Shahar tevaragi Oxanir, Chorsu, Shayxzoda, Korizgoh, Soʻzangaron va Feruza kabi nomlar bilan yuritiluvchi oltita darvozali mustahkam yangi qalʼa devori bilan oʻrab chiqildi. Shahar arkida Amir Temurning qarorgohi – Koʻksaroy va Boʻstonsaroylar bino qilindi. Arkda Koʻktosh deb yuritilgan taxt kursi oʻrnatilgan ulkan miyonsaroy (zal)dan tashqari, davlat devonxonasi, qurol-yarogʻlar yasaydigan ustaxona va aslahaxona, tangalar soʻqiladigan zarbxona, qamoqxona kabi imoratlar joylashgan edi. Samarqandda masjid, madrasa va maqbaralar bilan bir qatorda koʻprik va hammomlar qurilgan, shahar tashqarisida esa qoʻriqxona va bogʻ-rogʻlar barpo etilgan. 1403–1404-yillarda Samarqandda boʻlgan Ispaniya elchisi Klavixo Amir Temur farmoni bilan olib borilayotgan bunyodkorlik ishlarini kuzatib hayratda qolgan edi. Hozirda Bibixonim nomi bilan mashhur jome masjidi va boshqa koʻpgina binolar aynan oʻsha davrda qad koʻtargan edi.

Bu davrda Samarqandda koʻrkam va muhtasham imoratlardan tashqari turli kasbdagi hunarmandchilik mahallalari barpo etilib, hunarmandchilik ustaxonalarining omikor egalari uchun shart-sharoitlar yaratib berilgan edi.

Sohibqiron Samarqand atrofida koʻpgina goʻzal bogʻlar bunyod ettirdi. Mohir meʼmor, tajribali sohibkorlarning aql-zakovati, mehnatiyu mahorati bilan barpo etilgan Bogʻi Dilkusho, Bogʻi Chinor, Bogʻi Bihiisht, Bogʻi Baland, Davlatobod, Bogʻi Nav, Bogʻi Shamol, Bogʻi Jahonnamo, Bogʻi Jahonnamo kabi chorbogʻlar va ulardagi goʻzal koʻshklar oʻsha davr bogʻdorchilik sanʼatining namunalaridandir. Tuzilishiga koʻra bogʻlar ikki turda boʻlgan. Birinchi turdagi bogʻlar har tomoni taxminan bir kilometr masofaga choʻzilgan toʻrtburchak shakldagi chorbogʻlar boʻlib, ikkinchi turdagilari esa tabiiy daraxtzor, butazor va oʻtloq maysazorlarda barpo etilgan qoʻriqxonalardir. Bunday qoʻriqxonalarda hukmdorlarning ov (shikor) qilishi uchun moʻljallangan. Qoʻrixonaning oʻsimlik va hayvonot dunyosi nihoyatda boy boʻlgan.

Shaharning sharq tomonida Bogʻi Dilkusho joylashgan. Uning tashqi hovlisida hashamatli saroy boʻlib, uni qurollangan askarlar qoʻriqlagan. Ichki hovlida esa tugʻlar bilan bezatilgan oltin fil haykallari



safga terilgan. Uchinchi hovli Amir Temurning chet ellardan kelgan mehmonlarni qabul qiladigan oltin taxti qarorgohi boʻlgan. Sohobqiron ispan elchisi Klavixoni ana shu bogʻdagi qarorgohida tantana bilan qabul qilgan.

Amir Temur mamlakatni boshqargan davrda Movarounnahrning dehqonchilik vohalarida, xususan, Zarafshon vodiysida qator sugʻorish tarmoqlari qazilib, sugʻorma dehqonchilik maydonlari kengaytirildi. Yangi-yangi qishloqlar barpo etildi. Sohobqiron davlat poytaxti Samarqand atrofida qad koʻtargan bir qancha qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari Dimishq (Damashq), Misr (Qohira), Bagʻdod, Sultoniya va Sheroz nomlari bilan atadi. Zero, Samarqand oʻzining katta va yangi shahar ekanligi, beqiyos goʻzalligi hamda tevarak-atrofining obod etilganligi jihatidan jahondagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmogʻi lozim edi.

Mamlakat shaharlarida, ayniqsa, uning poytaxtida savdo va hunarmandchilik rivojlanaadi. Yangi bozorlar, savdo rastalari barpo etiladi. Shahar bilan dehqonchilik vohalari, chorvador koʻchmanchi va yarim koʻchmanchi aholi oʻrtasida ayirboshlash, savdo aloqalari kengayadi. Oʻzaro savdoni kengaytirishda shahar aholisi alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatning ichki va tashqi savdosi kengayib, taraqqiy etishida Samarqand katta oʻrin tutardi. Klavixoning taʼriflashicha, Samarqand bozorida bugʻdoy, guruch moʻl va arzon boʻlgan. Unda hunarmandchilik mahsulotlari: atlas kimxob, ip va jun toʻqima mollari, moʻynali va ipakli poʻstinliklar, attorlik mahsulotlari, ziravor va dorivorlar, zarhal va lojuvardlar va oʻzga mollar sotilgan. Poytaxtga chet el mamlakatlaridan, xususan, Xurosondan maʼdanlar, Hind va Sinddan yoqut va olmos, Xitoydan atlas, yashim (yashma) toshi, mushk va boshqa mollar, oʻzga yerlardan oltin va kumush olib kelinardi. Klavixo Xitoy poytaxti Xonbaliq (Pekin)dan 800 tuyalik savdo karvoni kelganini oʻz kundaligida qayd etgan.

Bu davrda Amir Temur va uning mahalliy noiblari Xitoy va Hindistondan Oʻrta Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga tomon yoʻnalgan xalqaro karvon yoʻli – Buyuk ipak yoʻli va uning tarmoqlarini qatʼiy nazorat ostiga oladi. Savdo karvonlari qatnovining xavfsizligini taʼminlash va ularga qulayliklar yaratib berish maqsadida jiddiy chora-tadbirlar koʻriladi. Shaharlarda karvonsaroy, ipak yoʻli boʻylab rabotlar, qalʼalar va koʻpriklar quriladi. Natijada Sharq bilan Gʻarb mamlakatlari oʻrtasida savdo-sotiq va elchilik aloqalari kengayadi. Bular esa shubhasiz, Amir Temur davlatining tashqi iqtisodiy va elchilik aloqalari barqarorligini taʼminlashga xizmat qilgan edi.



Qahramon RAJABOV, tarix fanlari doktori, professor.

Tamom.

“Sizlar bizga sarkarda Amir Temurni tarbiyalab berdilaringiz, bizlar uni Sohobqiron Amir Temur darajasiga koʻtardik”

- Шоира бир умр бахт қасрида яшади, у ҳеч қачон бу манзилдан ташқарига чиққани йўқ, назаримда, - деди ички бир хотиржамлик билан нотиқ.

Унинг бу манзилга етгунига қадар босиб ўтган оғир, тиканли йўллари мен яхши биламан, ҳар қандай ҳолатда ҳам шоирам қаддини тик тутди.

- Сўзига, шеърига суюнди, - кўзига ёш олиб сўйлади табрик учун сўз олган яна бир шоир.

Аслида нотиқлар бир инсон ҳақида сўзлашди, аммо бунчалик қарама-қарши фикрларни қандай тушунмоқ керак? Тиканли йўллarnи босиб ўтиб ҳам бахт манзилида қолмоқ мумкинми? Бу жумбоқ эмас, аксинча, барчага тушуниш қийин бўлса-да, аммо бундайн қарама-қаршилиқлару, сўз ичра яшаш бахтию бахтсизлигини анжуман қатнашчилари - ижод аҳли ич-ичидан ҳис қилиб турди.

Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмасида Ўзбекистон халқ шоири Хосият Бобомуродова ижодига бағишланган учрашув олқишлар, ҳайратлар, ҳаяжону ҳароратга бой бўлди. Сўзга чиққанлар - жамоат арбоблари, мамлакатимизнинг забардаст ижодкорлари, мухлислар барчаси бирдай шоира ижодидан завқланган ҳолатлар ҳақида сўзлаб беришди. Самииятга йўрилган бу сўзларни анжуман қатнашчилари қулоғи билан эмас, қалби билан тинглади, десам муболага бўлмас. Келинг, шу фикрларнинг баъзиларини сизнинг ҳукмингизга ҳам ҳавола этсак.

Минҳожиддин МИРЗО, Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси раиси ўринбосари:

-Биз Самарқандда Амир Темур боғларини билардик, лекин бу шаҳарда Хосият Бобомурованинг боғи ҳам мавжуд, шеърят аталмиш бу боғ таърифи аллақачон мамлакатдан чиқиб, қўшни юртлар ижод аҳлига ҳам маълум бўлган. Шоиранинг ҳар бир шеъри бир дарахт, ниҳолки, илдизи Ватанга меҳр-муҳаббат, гўзал туйғулар, шаддли журъат билан сўғорилад.

Дерлар ширин сўзнинг гадолари кўп, Ёниб турган кўзнинг адолари кўп, Юртлар бор, ҳаттоки худолари кўп Ватан ягонадир, Ватан биттадир.

Ватанини англаш, деган муборак тушунча бор. Шоира шеърларида Ватанини англаш Самарқандни англаш билан уйғунлашиб кетади. Самарқандни англаш эса уч минг йиллик тарихимиз, давлатчилигимиз, маданиятимизни, суронли асрлар, нидоларни англаш демакдир.

Ҳақ менинг кўнглима, ошиқ кўнглима, Номингни зикр айлаб, этадирман ёд, Ёмғирлар қаердан ёғди, девдима Сени муңча ййглаб севдим Самарқанд. Хосият Бобомуродованинг қайси мавзудagi шеърларини олиб қараманг, уларда ўзига ҳос наво, садо борлигини ҳис қиласиз. Бунни шоиранинг ўзи қуйидагича ифодалайди:

Энди билдим, азобларга эшикман, Қонлариди сўз ухлаган бешикман, Ҳамма каби бўлолмайин хайронман, Одаммасман, кўшиқман, мен кўшиқман.

Мен дунёга сўз излаб келдим, дейди шоира. Шоира юрагини кўп ҳолларда қуш тимсолида кўрамиз, яъни парвозга шайланаётган қуш. Ва бу қуш барча даврларда, барча покиза юракларга пешвоз чиққани билан ҳам юксак, қадрли.

Асло арзимайман бўлмоққа душман, Ҳеч қачон ҳеч кимга узолмайман ўқ, Мен фақат учмоққа яралган қушман, Муҳаббатдан ўзга қуролим ҳам йўқ.

Ҳақиқатда шоирнинг энг катта бисоти – унинг ёниб турган юраги, ёниб турган кўзлари. Чунки бу юрак қалбларни эртади, муз қотган юракларни иситади. Жунжи-каётган юраклар ҳеч иккиланмай Хосият Бобомуродованинг ижодидан баҳраманд бўлсин, унга яқин келсин, дегим келади.

Қутлибека РАҲИМБОВЕВА, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими:

- Аслида Ватан ҳақидаги шеърларнинг барчаси ҳам одамлар қалбига сингиб кетмайди, улар жуда санокли, халқ орасида барча жўр бўлиб айтадиган бундай қўшиқлар ҳам кам. Аммо Хосият Бобомуродованинг “Ватан ягонадир” шеърига



Оловда самандар бўлгани келдим



шундай ардоқли шоирамиз билан замондошлигимиз фахримиз, ғуруримиз.

Оташлар юртига – оловга келдим, Ошиқлар кўтарган яловга келдим, Лутфига меҳрлар тўловга келдим, Ўт билан сувга киргони келдим. Ўзинг ўт бўлмасанг, қўшмаслар бунда Ҳуда беҳудага жўшмаслар бунда Ғурурининг отида учмаслар бунда Оловда самандар бўлгани келдим. Ижодкорларга сўз навбати беришда нотиқ Гулжамол Асқаровага алоҳида лутф кўрсатди, “Олов шоирамиз ҳақида ўзи каби олов сўзли ижодкор нималар дейиши ҳаммамизга қизиқ”, деганди, бутун зал қарсак овози билан яна бир бор яйради.

Гулжамол АСҚАРОВА, “Зулфия” номидаги давлат мукофоти соҳибдори, “Шўхрат” медали соҳибаси:

–Ўсмирлик давримизда шеърятга бўлган дастлабки қизиқишларимиздан тортиб, шеърятни то тақдиримиз, деб билган давргача бўлган босқичларнинг барчасида Хосият Бобомуродова бизга устозлик мақомида бўлганлар.

Мақтабда ўқиб юрган пайтларимда дугонам шоирамизнинг “Самарқандга мактублар” деган китобини совға қилганди. Шу китоб кўнглимга чўғда ўтириб, уни қўлдан қўймай ўқирканман, оз муддат ўтмай, ундаги ҳар бир сатрни ёддан айтиб берадиган бўлдим. Ҳозир ҳам бу китоб қўлимда, у мен учун ўшандай қадрли.

..Хавотирдан юрак энтикар, Ёпишман сўнг телефонга, Қизларимни койийман тутаб Хатирчига уланглр мени, Хатирчига уланглр шитоб. Алоқанинг совуқ симлари, Хавотирнинг совуқ тиллари Эна, мени жуда қўрқитар...

Бу мисралар орадан ўн йилликлар ўтса-да, хотирамда, қалбимда муҳрланган. Ҳар бир сатрида Самарқанднинг улғуворлиги акс этадиган дилбар шоирамиз мана шундай, фақат расман эмас, чини билан халқ юрагидан жой олган шоирадир. Шунинг учундир, опанинг ижоди халқимиз томонидан қадрланди, шарафланди, ҳукуматимиз томонидан шоира доим ёъзода бўлди.

Хосият Бобомуродова - Самарқанднинг жаҳоҳир шоирлари, ҳудудда интеллектуал давра, адабий муҳит яратган ижодкорлар шодасидаги бир марварид, гавҳардир!

Анжуманда “Ишонч” ва “Ишонч-Доверие” газеталари бош муҳаррири Хусан Эрматов, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими, шоира Зулфия Мўминова ва бошқа ижодкорларнинг самимий чиқишлари давргага фойз бағишлади. Ўзбекистон Қаҳрамони, Абдулла Ориповнинг қизи Шоира Орипова томонидан Марказий Осиё давлатлари ёзувчилари ва тарихчиларини бирлаштирадиган “Янги овоз” уюшмаси ҳамда Қирғизистон Республикасининг “Амир Темур” халқаро фонди томонидан ташкил этилган “Абдулла Орипов” медали тантанали топширилди.

Пешонамга сўз битилган дарбадар Юрагимга ўйиб кирган дард, ҳасрат, Туғилган ўйимдан қабримга қадар Фақат қуйламоғим, қуйламоғим шарт.

Томиримда қонмас, олов югурад, Қўравериб қийнар ўткир кўзларим. Ҳар тонг юрагимда бир мих сўғурад Ўрнидан оқади қон ва... сўзларим.

Билман, бу азоблар бахтимдир балким Қуйлашга ҳар лаҳза, ҳар лаҳза шайман. Сен мендан шеър сўра, сўрайвер халқим Сен қанча сўрасанг, шунча шайман! Учрашув сўнгига халқ шоираси – Хосият Бобомуродова кўнглига қанот бўлган, шижоату меҳрига ғайрат қўшган ушбу учрашув иштирокчиларига самимий изҳорларини билдирар экан, юқоридаги мисраларини баралла айтиди, сўзга ошўфталарнинг қўлларига эмас, қалби ҳам жаранглаб қарсак чалди.

Гулрўх МЎМИНОВА.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 263 nusxada chop etildi. Buyurtma 288. Hajmi 2 bosma tablo, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA EʼLONLAR: (66) 233-91-56

BOʻLIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulugʻ Tursunov koʻchasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter boʻlimida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen koʻchasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

Gʻ.HASANOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga oʻtish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 1772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda